

MASOFADAN O'QTISHINING DASTURI VA TEXNIK VOSITALARI

Abdumo'minova Sevinch Alisher qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 3- kurs talabasi

Annotatsiya : Ushbu maqolada masofaviy ta'lim ahamiyati , shakillari va turlari berilgan . Ta'lim jarayonida masofaviy ta'limni qo'llash samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi dasturiy ta'minot va texnik vositalarning o'rni tahlil etiladi . Zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida o'quv jarayonini optimallashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar : Masofaviy ta'lim , raqamli texnologiyalar optimallashtirish, shakillari va turlari , dasturiy ta'minot va texnik vositalar .

Kirish : Masofadan o'qitish - zamonaviy pedagogikaning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib , ta'lim jarayonini masofa orqali tashkil etishga xizmat qiladi . Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bugungi kunda ushbu ta'lim shakli nafaqat qo'shimcha imkoniyat , balki ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda . Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev ta'kitlaganidek , "Zamonaviy ta'lim jarayoni raqamlashtirishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi , bu esa yoshlarimizning sifatli bilim olishiga keng yo'l ochadi ."

Masofadan o'qitishning asosiy mazmuni elektron platformalar orqali o'quvchi va o'qtuvchi o'rtasidagi interaktiv aloqani yo'lga qo'yishdan iborat . Bu jarayon o'quvchilar istalgan joyda , istalgan vaqtda bilim olish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ta'minlaydi . Hozirda ta'lim tizimida Moodle , Google , Classroom , Microsoft Teams , Edupage kabi o'quv platformalari keng qo'llanilmoqda .

Ushbu dasturlar :

Darslarni rejalashtirish va tarqatish , videodarslar joylash , nazorat ishlari , testlar va topshiriqlar berish , baholash jarayonini avtomatlashtirish , o'quvchi foaliyatini monitoring qilish imkonini beradi .

Asosiy qisim : Bugungi globallashtirish davrida ta'lim tizimi jadal sur'atlar bilan raqamlashtirilmoqda . Raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga chuqur kirib kelayotgani kabi , ta'lim jarayonini ham yangi bosqichga ko'tarilmoqda . Ayniqsa

masofadan o'qitish tizimi nafaqat qulaylik yaratuvchi qo'shimcha model , balki ta'limning muhim strategik yo'nalishga aylanadi . Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev o'z nutlarida ta'limni raqamlashtirish va onlayn o'qitish imkoniyatlarini kengaytirishni zamon talabi sifatida qayd etib , bu yo'nalish bo'yicha keng ko'lamli vazifalarini belgilab bermoqda . Masofaviy ta'lim o'qitishning mustaqil shakli bo'lib masofaviy ta'limda axborot texnologiyalari asosiy vosita hisoblanadi .SHuningdek zamonaviy masofaviy ta'lim quyidagi asosiy elementlardan foydalanishga asoslanadi. Masofaviy ta'limning joriy etilishi o'quvchilarga istalgan joydan turib bilim olish imkoniyatini yaratibgina qolmay , o'quvchilarga ham o'quv jarayoni samarali tashkil etish , nazorat qilish va baholash uchun yangi vositalarni taklif etadi . Shu boisdan ham masofadan o'qitish tashkil etishda qo'llanadigan dasturlar , platformalar va texnik vositalarning o'rnini nihoyatda muhimdir .Masofaviy o'qitish tajribasi bugungi kunda ta'lim jarayoning eng optimal shakl , metod , vositalarning tizimlashtirishga imkoniyat yaratadi . Masofaviy o'qitish shakllari A.A.Andreyev , Ye.S.Polat, I.M.Ibragimov , V .A.Kuklev , A.L.Safonova ,M.I.Solodkova .V.P.Tixomirov va boshqalarning ishlarida yoritilgan .Konseptual g'oyalar masofaviy o'qitish kurslarini zamonaviy talabalar asosida tashkil etishda ma'lum bir tashkiliy – pedagogik , didaktik , texnologik va boshqa qoidalarga asoslanishi kerakligini bildiradi va bu masofaviy o'qitish jarayonini tashkil etishda sifat va samaradorlikka erishishga xizmat qiladigan g'oyalar hisoblanadi .Masofaviy o'qitish o'ziga xos xususiyatga ko'ra , bir vaqtning o'zida nafaqat tyutor bilan , balki boshqa ishtirokchilar bilan ham aloqa , turli xil bilim va ijodiy foaliyat jarayonida hamkorlik qilish imkoniyatini istisno etmasligi kerak. Ijtimoiylashtirish muammolari masofaviy o'qitish uchun juda dolzarbdir . Tarmoqda ta'lim oluvchilarning mustaqil individual yoki guruhviy foaliyatini tashkil etish kamida kunlik o'qish , har bir ta'lim oluvchining ichki xususiyatlarni ochishni rag'batlantiradigan va shu bilan birga shaxsning ijtimoiy fazilatlarini shakillantirishga yordam beradigan eng yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'z ichiga oladi .Avvalo, loyha uslubidan keng foydalanish , hamkorlikda o'qitish ,tadqiqot , muammoli usullar , ko'p bosqichli o'qitish , modulli va boshqalardan foydalanish zarurdir .

Xulosa : Masofadan o'qitishning dasturlari va texnik vositalari zamonaviy ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi . Ushbu texnologiyalar o'quv jarayonini yanada interaktiv ,

qulay va samarali qiladi .SHuni takidlash kerakki , masofadan o'qtishning samarasi dastur va texnik vositalarni to'g'ri tanlash , o'quv jarayonini rejalashtirish va pedagogik qo'llab – quvatlashga bog'liq .Kelajakda bu soha yanada rivojlanib , individual va gruh bo'lish o'qish imkoniyatlarini kengaytiradi ,ta'lim sifatini oshiradi hamda o'quvchilarning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

Foydalangan adabyotlar

- 1 .Masofaviy ta'lim nazaryasi va amalyoti :Proc talabalar uchun yordamida yuqoriroq ped , darslik muassasalari /E.S.Po'lat , M.Y.Buxarkina ,M.V .Moiseyeva , Ed .E . S . Po'lat // M “Akademiya “ nashiryot markazi , 2022 yil
- 2 . Zohidov , A. Masofaviy ta'lim texnologiyalari .- Toshkent : TDPU nashiryoti , 2020.
- 3 . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF- 6079 – son Farmoni – “ Raqamli ta'limni rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida “ 2020.
- 4 . Xudoyorova ,K.(2023).Masofaviy ta'lim texnologiyalari va ularning ta'lim jarayonidagi qo'llanishi .Toshkent: Ta'lim nashiryoti .